

“LISON UT TAYR” DOSTONIDA YETTI VODIY OBRAZINING ORIFONA TALQINI.**Abdug‘aniyeva Durdonaxon**

FarDU 2- bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11151413>

Annotatsiya. “Lison ut-tayr” murakkab irfoniy doston bo‘lib, unda Navoiy majoziy obrazlar va ularning ramzli sarguzashtlari orqali obyektiv borliq va ilohiyot haqidagi qarashlarini bayon etadi, shu bilan birgalikda dostonda real hayot lavhalari, kishilarning xatti-harakati, fe‘l-atvoridagi ijobiy va salbiy xususiyatlar ham tasvirlangan.

Dostonga e‘tibor bersak, asosiy ramziy ma‘noni “yetti vodi” tushunchasiga yuklatilganligini ko‘rishimiz mumkin. Biz bu maqolamizda mana shu yetti vodiyning orifona talqini to‘g‘risida fikr yuritamiz.

Kalit so‘lar: vodi, tavhid, istig‘no, ma‘rifat, tayr, so‘fiy, suluk, fano, tasavvuf.

ORIPHONE INTERPRETATION OF THE IMAGE OF THE SEVEN VALLEYS IN THE EPIC "LISON UT TAIR".

Abstract. "Lison ut-Tair" is a complex mystical epic, in which Navoi expresses his views on objective existence and theology through figurative images and their symbolic adventures, and at the same time, in the epic, scenes of real life, the behavior of people, and the positive aspects of their character. and negative features are also described.

If we pay attention to the epic, we can see that the main symbolic meaning is assigned to the concept of "seven valleys". In this article, we will discuss the Orifona interpretation of these seven valleys.

Key words: valley, tawhid, isolation, enlightenment, tayr, sufi, leech, fano, mysticism.

ОРИФОННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА СЕМИ ДОЛИН В ЭПОСЕ «ЛИСОН УТ ТАИР».

Аннотация. «Лисон ут-Таир» представляет собой сложную мистическую эпопею, в которой Навои выражает свои взгляды на предметное существование и богословие через образные образы, а также описываются их символические приключения, положительные и отрицательные черты его характера.

Если обратить внимание на эпос, то можно увидеть, что основное символическое значение придается понятию «семь долин». В этой статье мы обсудим интерпретацию этих семи долин Орифоной.

Ключевые слова: долина, таухид, изоляция, просветление, тайр, суфий, пиявка, фано, мистика.

Kirish

“Lison ut-tayr” Alisher Navoiyning umrining so‘nggi palalasida, 1499-yilda yozilgan yirik irfoniy doston bo‘lib, dostonning yozilishi sababi haqidagi bobda berilishicha, bolaligida ustoz yosh Alisherga Qur‘oni karim suralarini yodlatish barobarida zehni tez va tab‘i ravon bo‘lishi uchun “Guliston”, “Bo‘ston”, “Mantiq ut-tayr” kabi kitoblarni ham o‘qitib turgan. Bularning orasida ayniqsa, “Mantiq ut-tayr” bo‘lajak shoirga qattiq ta‘sir qilib qo‘ydi va butun umr uning hayolini band qildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu dostondagi qushlarning yetti vodiyan uchib o‘tishlari, har bir vodiyning o‘ziga yarasha qiyinchilik va mashaqatlarining borligini bila turib, sabr bilan, bardosh bilan o‘z maqsadlariga yetishishlari tahsinga loyiqdir.

“Yetti“, “Yettilik”qadimgi mifologiyada, xalq og‘zaki ijodida ham o‘zining sehrli ekanligi bilan mashhurdir. Bu raqam fors va turk adabiyotida birdek mashhurdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Dostonda bir hamroh bo‘luvchi qush rahbarlik bobida chechan bo‘lgan qushga, ya‘ni Hudhud qushiga qayerga borishlari , maqsadlari va duch keladigan qiyinchiliklari qanday bo‘lishi haqida bir nechta savol beradi.unga Hudhud shunday javob beradi:

“Ey bu yo‘lda hamroh bo‘lgan o‘rtoq! Bu savoling nozik savol bo‘ldi. Sen mendan bu safar kayfiyatini, undagi manzil va vodiylarda duch kelinadigan qiyinchilik va shodliklar haqida so‘rading.

Bilgilki, bu yo‘l bir necha vodiylar va manzillardan iboratdir. Endi men ularni senga birma-bir sharh qilib beray, sen voqif bo‘l.

Oldimizda yettita katta vodiylar turibdi. Ularning har birida xavfu xatar haddan tashqari ko‘pdir. Bu vodiylarning har qaysisida son-sanoqsiz manzillar bo‘lib, aql ularni sanab chiqishga ulgura olmaydi. Lekin bu manzillarning hammasi aslida yettita katta vodiylarga birlashadi. Men ana shu vodiylar sharhini bayon qilaman.

Avvalgi vodiylar Talab vodiysidir, unga sharofatli to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchigina boshlab olib boradi.

Keyingi vodiylar - Ishq vodiysi. Sen bu yerda ishq o‘ti ichra boru yo‘g‘ingni o‘rtashing lozim. Ishq sening vujudingni yo‘qotgach, Ma‘rifat vodiysiga qadam qo‘yasan.

So‘ngra Istig‘no (Ehtiyojsizlik) vodiysi keladi. Bu vodiylar benihoya keng bo‘lib, yuksak osmon ham uning oldida past turadi.

Undan keyingi Tavhid (Yagonalik) vodiysidir. Undan o‘tish uchun kishi yolg‘iz bo‘lmog‘i zarur.

Undan o‘tsang, Hayrat vodiysiga duch kelasan, bu yerda senga ko‘p shiddatlar yuzlanadi.

Hammadan so'ng Faqru Fano (Faqirlik va yo'qlik) vodiysi keladi. Sayr qilayotgan solik shu bilan yo'lni nihoyasiga yetkazadi. Bunda suluk ahli o'z maqsadiga erishib, ish o'zgacha bir holat bilan tamom bo'ladi.

Lekin bu vodiylardagi manzillardan hech kim xabar bergan emas. Bu yo'ldan ketganlardan hech kim qaytmagan. Hatto bu yetti vodiy ham nihoyatda muxtasar bo'lib, uni tavsiflashda ko'p chalkashliklarga yo'l qo'yilgan".¹

Yetti" timsolining "Lison ut-tayr" turkumidagi dostonlarga kirib kelish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, quyidagi qiziq holatga duch kelamiz. Ibn Sinoning "Tayr" qissasida qushlar ovchidan qochib, sakkiz tog'ni oshib o'tishadi. Ushbu motiv, ya'ni qissadagi qushlar uchib o'tgan sakkiz tog' payg'ambarimiz me'roj kechasi bosib o'tgan osmonning sakkiz qavatiga ishora edi. G'azzoliyning qissasida esa qushlar uchib o'tgan tog'lar "vodiy" so'zi bilan almashtiriladi.

Ixtiyor, iztiror vodiylari haqida so'z boradi. Biroq ularning soni haqida aniq ma'lumot berilmaydi. Attorga kelib esa bu tartib aniq yettita qilib belgilanadi, ularga **Talab, Ishq, Ma'rifat, Istig'no, Tavhid, Hayrat va Faqru fano** deya nomlar qo'yiladi, har biriga o'ziga xos tasnif beriladi. Navoiy "Lison ut-tayr"da vodiy nomlari va ularning tasniflarini o'zgarishsiz qoldiradi.

Lekin ularni muallif emas, qushlarning savollariga javob tarzida Hudhud ta'riflaydi.

Navoiy timsollari vositasida ulug' shoirning fikrlarini tadrijiy davom ettirish bilan cheklanmasdan, uni o'ziga xos novatorlik bilan rivojlantirdi. Aytish mumkinki, mumtoz adabiyotning ajralmas qismi bo'lmish tasavvuf adabiyotida ham "yetti" raqami ramziy ma'noga ega deb qabul qilindi. Tasavvufda "yetti maqom", "yetti hol" kabi atamalarga muvofiq, "Lison ut-tayr" ramziy-tasavvufiy doston bo'lib, tasavvufshunos olim N. Komilov ta'kidlaganidek, "Attor va Navoiy tasvirlagan yetti vodiy solik ruhining yetti tovlanuvchi manzarasi – Ilohga vosil bo'lish bosqichlari, ma'rifat zinalarini bildirib keladi". Navoiy "Lison ut-tayr"da va umuman boshqa dostonlarida ham salafi Attor aytib o'tgan tasavvufning yetti bosqichi asosida mulohaza yuritganligini ko'rishimiz mumkin. Bu bosqichlarni u Attor nomlaganday "vodiylar" deb ataydi.

Navoiy vodiylarni ustoz Attor kabi ta'riflaydi. Alisher Navoiy har bir vodiy ta'rifidan so'ng turli hikoyatlar ham keltiradi. Talab vodiysi uchun shoh va uning sahrodagi 2 oshiq haqida hikoyatni, 2-vodiy uchun Asma'iy bilan bog'liq hikoyatni, 3-vodiy uchun bir guruh ko'rlar haqida hikoyatni, 4-vodiy uchun shatranj o'yini bilan bog'liq hikoyatni, 5-vodiy uchun Mansur Xalloy bilan bog'liq voqeani, 6-vodiy uchun bir bora vasl sharobidan mast bo'lib, o'zini yo'qotgan va hajrda qolgan yigit haqidagi hikoyatni va oxirgi vodiy uchun esa Navoiy bir emas, to'rt hikoyat keltiradi. Navoiyning bu hikoyatlarni keltirishidan masad shu vodiylarning mohiyatini ochib

¹ Alisher Navoiy asarlari. Kutubxona: <https://forum.ziyouz.com>

berishdir. Bu vodiylar – tasavvufga kirib kelgan solikning holatiga muvofiq bo‘lib, unda tolibning qat’iyati va saboti sinaladi.

Vodiylarning eng birinchisi bu **talab** vodiysidir. Bunda solik qiyinchiliklarni va to‘siqlarni yengib, o‘zini ma’naviy jihatdan tozalab, tariqatga tayyorlashi lozim bo‘ladi. Talab vodiysidagi toatning oddiy ibodatdan farqi shundaki, unda solikning ibodatidan maqsad dunyoviy orzu-havaslar yoki jannatu, undagi kavsar va hurlar ta’masi emas, faqat Yaratganning O‘zi bo‘lmog‘i kerak.

Ikkinchi vodiy **ishq** vodiysidir. Bu vodiy talabning uzviy davomi bo‘lib, solik qalbida talab komillashgach, ishq paydo bo‘ladi. Tasavvufning ham, uning badiiy adabiyotdagi in’ikosi bo‘lmish tasavvuf adabiyotining ham asosiy kuylanish obyekti bo‘lgan bu daraja haqida uzoq gapirish mumkin.

Olohgga bo‘lgan ishq ibodatning asosini tashkil etishi tasavvufning uzoq tarixiga borib taqaladi. Jumladan, mashhur sufiy ayol Robiya al-Adaviya munojotlarida Tangriga Yor deya murojaat qiladi va iltijolaridan maqsadi jannatdan umid-u, do‘zaxdan qo‘rquv emas, balki Yaratganning diydori ekanligini izhor etadi. Bu tuyg‘uning falsafiy asoslarini Ahmad G‘azzoliy tasavvuf ilmiga nazariya sifatida tatbiq etdi.

Ishq keldi mash’ali getifuro‘z,

Dema mash’al, shu’lai ofoqso‘z...²

Navoiy ishqqa bo‘lgan Attor ta’rifini yanada kuchaytirish uchun kapalak – parvona, bulbul va sayray olmaydigan qush timsollariga murojaat qiladi. U tazod san’atidan foydalanib, haqiqiy ishqni otash- olovga, oshiqni parvonaga, ishqqa havasmand soxta oshiqlarni esa kapalakka, oshiqni bulbulga, havaskorlarni esa sayray olmaydigan boshqa qushlarga qiyoslar ekan, oshiqning haqiqiy vazifasi ishq aro kuyib kul bo‘lishdir deydi:

Shod erur ishq ahli o‘rtanmak bila,

Bo‘lmag‘ay bu sheva o‘rganmak bila.

Bu ta’riflari bilan Navoiy ishq tasvirini yanada kuchaytiradi va tashbeh san’atidan foydalanib, oshiq holatini chaqmoq urgan xashakka qiyoslaydi:

Kimsa bo‘ldi ishq aro tushgan dam o‘t,³

O‘tqa nekim tushti bo‘ldi ul ham o‘t.

Dostondagi yetti vodiidan uchinchi **ma’rifat** vodiysi deb ataladi. Ma’rifat tasavvufiy istiloh sifatida ham ikki xil ma’noni bildirib keladi. Birinchisi, tasavvufning to‘rt umumiy

² Мамадалиева З. «Лисон ут-тайр» образлари: рамз ва мажоз олами Тошкент. – 2021. - Б. 79

³ Мамадалиева З. «Лисон ут-тайр» образлари: рамз ва мажоз олами Тошкент. – 2021. – Б. 80

bosqichidan uchinchi bo‘lib, u haqda adabiyotshunos M. Oripov “Yetti vodiy ta’rifi” maqolasida shunday deydi: “Ma’rifat haqiqatni, xudoni bilish bosqichi. Bunda solik o‘z sezgilaridan xoli bo‘lib, ayrim daqiqalarda bir lahza haqiqatga yetish imkoniga ega bo‘ladi, hayajonlanadi. Bu jazavali holat “hol” deyiladi”.

Navoiy esa ustozidan farqli ravishda Ollohni anglash yo‘lidagi farqni aytib o‘tadi va o‘z fikrini “bu vodiya Musoyu Fir’avnni, Mahdiy Dajjolni ko‘rish mumkin, bularning hammasi o‘z yo‘lida sobit, Ahmad nurga g‘arq bo‘lgan bo‘lsa, Abu Jahl zulmat ichida deb ta’riflar ekan, o‘z xulosasini quyidagicha bildiradi:

Chunki partav soldi ul pokiza nur,

Bo‘ldi har kimning kamoliga zuhur

“Lison ut- tayr”dagi ma’rifat vodiysining ta’rifi attorona bo‘lib, Navoiy uni aynan tarjima qilgan.

Keyingi vodiy **istig‘no** bo‘lib, Navoiy bu vodiy ta’rifida tasavvufning borliq, olam va odamzodning yaratilishi haqidagi umumiy mulohazalarini badiiy tasvirlaydi. Ushbu ta’riflarda Tangrining ehtiyojsizligi-yu, solikning mana shu ehtiyojsizlikni anglab yetishi zamirdagi holati bayon qilinadi. Bu vodiyni ta’riflashda Navoiy faqatgina Attorning fikrlarini tarjima qilibgina qolmasdan, uni quyidagicha rivojlantiradi: Unda gumroh (yo‘ldan adashgan) va ogoh, butxona va ka’ba yo‘li bir xildir, ular obodmi yo vayronmi (istig‘no sohibi – Olloh uchun) farqsizdir.

Istig‘noning kuchidan ming yashar fil hozirgina tug‘ilgan filbachaday, ulug‘ charxi falak bir dona xashak bilan tengdir. Kufr bilan din bu vodiya barobardir, xullas, bunda solik (yo‘lovchi)ga ish juda qqiyindir. Mana shu ehtiyojsizliklarni anglash va his etish asnosida solik (banda)da ham Tangridagi ehtiyojsizlik sifati aks etadi. Solikning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarga rag‘bati kamayishi barobarida kamoloti

yuksalib, axloqi tozarib boradi

Beshinchi vodiy **tavhid** vodiysi hisoblanadi. Tavhid – nafaqat tasavvufiy, balki umumislomiy termin bo‘lib, Allohning yagonaligini anglatadi. Lekin tasavvufiy tavhid – Allohning yagonaligini e’tirof etish bilan birga iloh va olam, iloh va inson yagonaligini e’tirof etadigan ilmdir. Bu haqda “Tasavvuf istilohlari sharhi”da quyidagicha yozilgan: “Olimlar tushunchasida tavhid e’tiqodga taalluqli bo‘lsa, so‘fiylar uchun u maqsad, mushohada va ma’rifat hisoblanadi. Birinchisi bilish va tasdiq etishga asoslansa, ikkinchisi – zavqiy idrokka suyanadi. Imom G‘azzoliy ta’rifiga ko‘ra, “Tavhid shunday sharafli maqomdirki, tavakkul, rizo, Allohga taslimiyat hollari ayni shu martabaning mevalaridir”. Abdulloh Ansoriy hazratlarining aytishicha “tavhid – birlikda so‘zlamok, birlikda ko‘rmoq va yakto bo‘lmoqdir”. Ushbu vodiya bag‘ishlangan hikoyatda Navoiy Mansur Xalloyni eslaydi. Hikoyatda tasvirlanishicha, Xalloy

“Muhammad payg‘ambar me’roj kechasi nega faqat islom ummatining gunohini so‘radi, barcha osiylarning gunohini tilaganida nima bo‘lardi?” – degan fikrda yurarkan. Ittifoqo, bir kuni Rasululloh uning tushiga kiradi va shunday deydi:

Kel fuzul ayvonida o‘ltirg‘uchi,
Lofi vahdatdin “Anal haq” urg‘uchi...
Onda menlikning xayoli yo‘q edi,
Balki bu lafz ehtimoli yo‘q edi.

Navoiy bu hikoyat bilan tavhid vodiysida “Anal haq” deb nido etgan Xalloyning aslida hali komillikka yetmagani – me’roj kechasi payg‘ambardan o‘zlikni talab qilayotganligini anglaydi va Muhammad payg‘ambar uning tushiga kirganligi haqidagi motivni kiritib, uni asl tavhidni anglab yetmaganlikda tanqid qiladi.

Hayrat vodiysi tavhid martabasining bevosita davomi bo‘lib, solikning tavhiddan, ya’ni Ollah bilan bir lahzalik bo‘lgan visoldan hayratga tushishi bilan izohlanadi. Bu istelohga “Tasavvuf terminlari so‘zligi”da quyidagicha ta’rif berilgan: “Hayrat – hayratda qolish, lol bo‘lish. Qalbgga tushgan tajalliy sababidan solikning tafakkur etolmaydigan va muhokama qilolmaydigan holga kelishi”. Navoiy hayrat vodiysini ta’riflar ekan, “Hayrat vodiysiga yetgan solik o‘zligini yo‘qotib, uning vujudi haqiqat nuri bilan yoritiladi va ko‘ngli haqiqatni ko‘rib, hayratlanadi. Bu yerda hayrat tilni gung (soqov) va lol aylaydi, aqlni zoyil (yo‘q), hushni poymol qiladi. Kecha bilan kunduzning farqini anglolmaydi. Yo‘qni bilmas, borni ham anglamas. Qaysi tomonga ko‘z solsang (haqiqatdan) hayratda bo‘lasan, hamma hayronlikda sargardon bo‘lur. Bu yerga qadam qo‘ygan ahli suluk hayronlikdan o‘zga ish bilmas”, deydi. Ya’ni, tavhid vodiysida, tajrid va tafrid martabalarida har nimaki hosil bo‘lgan bo‘lsa, hayrat vodiysida bularning barchasidan asar ham qolmaydi, balki bu vodiya inson o‘zligini ham anglay olmaydigan holatda bo‘ladi. Ishq vodiysida ham, ma’rifat darajasida ham hayrat bizningcha, oshiq vujudini qamrab oladi. Biroq bu vodiya u juda kuchli bo‘lib,

Ollahning qudrati, ehtiyojsizligiyu yagonaligidan hosil bo‘lib, solikning aqlu hushi, egallagan martabalaruyu o‘zligini ham zabun qiladigan kuchli hayajonli hayronlik tarzida kechadi.

Yanada aniqroq aytadigan bo‘lsak, Aqli Kull barcha aqlarning yig‘indisi va boshlang‘ich nuqtasi bo‘lgani kabi, Hayrat vodiysidagi hayrat barcha hayratlarning yig‘indisi va boshlang‘ich nuqtasidir.

Haqiqiy vasl – bu fano vodiysidagi foniylik martabasi bo‘lib, Fano vodiysiga Navoiy alohida e’tibor beradi. “Fano” istilohi haqida “Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati”da quyidagicha izoh berilgan: Fano – 1) baqosizlik, yo‘q bo‘lish, o‘lish. 2) o‘zlikdan kechish, o‘zni unutish, tasavvuf yo‘liga kirish. 3) o‘lim, ajal. Faqru fano – bechoralik va yo‘qlik, kamtarinlik va

o'zni unutmanglik". Ushbu izohlardan ikkinchisi Navoiy ijodida qo'llanilgan asosiy ma'no bo'lganligi sababli, "Lison ut-tayr"da ham ushbu istiloh aynan shu ma'noda qo'llaniladi. Ishq ahlining murodi bo'lgan fano martabasi Navoiyning ham maqsadi edi. Shuning uchun bu vodiy haqida doston boshidayoq so'zlanadi. "Qushlar diqqat birla so'rg'ondin so'ngra, Hudhud qushlarga Simurg'din nishonalar aytqoni" bobida Hudhud qushlarni Simurg' sari safarga da'vat etar ekan, ularga qarata:

Navhai bog'i fano tuzmak kerak,

Ul taraf parvoz ko'rguzmak kerak.

deydi. Ya'ni, bu safardan maqsad fano bo'lmog'i kerak. Xo'sh, bu oxirgi vodiy – Hudhuddek komil yo'l boshchining, Navoiyning maqsadi bo'lgan vodiy qanday ekan? Navoiy - "Faqr fano vodiysining adosi" bobida:

Barchasin Haq zoti mavji bahri bil,

Ham vujudin mavj yanglig' onlag'il...

deydi. Bu o'rinda muallif tasavvufning an'anaviy timsollaridan "bahr" (dengiz) va "mavj" kabi istelohlarga murojaat qiladi. Dengiz – Husni mutlaq – Tangri, demakki boqiylik timsoli, mavj esa – olam va undagi mavjudotlar – foniylilik ramzidir. Demak, fano vodiysida turli xil mavjlar – olamning turli xilda o'zgargan manzaralari, shu jumladan inson ham bahrga singib ketadi – Xudo zotiga fano bo'ladi.

Xulosa.

Dostonning yaratilishida bir diqqatga sazovor holat bor turkiy tilidagi barcha asarlarini Navoiy taxallusi bilan bunyod etgan shoir o'zbek tilidagi bu dostonini Foniylilik taxallusi bilan ziynatladi.

Foniylilik Navoiy orzusi, Foniylilik Olloh oshig'ining bosib o'tajak riyozat bosqichida kamolot cho'qqisidir. Shorolar davrida "Lison ut-tayr" nashr etilgan va o'rganilgan bo'lsa-da, uning falsafiy talqinidagi biryoqlamalik, adolatsizlarcha noto'g'ri munosabat hukm surdi Vohid Zohidov, Natan Mallayev va Olimjon Jo'rayev tadqiqotlarida Navoiy dostoni falsafasi panteizm deb keskin farq ettirildi. Ayni ana shu fikrda ustoz dostoniga nisbatan adolatsizlik hukm surdi. Navoiy odamni goh Ollohni soyasi, goh Ollohning o'zi sifatida talqin etadilar. Ammo sho'ro olimlari haqiqatni aytishdan cho'chidilar. Zero, tasavvuf olamda Ollohdan boshqa narsa yo'q, biz ko'rib turgan narsalar Olloh jilvasi deydi. Ya'ni borliq Ollohdan iborat, jonli-jonsiz mavjudotlar Olloh nomli buyuk quyoshning zarralaridir.

REFERENCES

1. Мамадалиева З. «Лисон ут-тайр» образлари: рамз ва мажоз олами Тошкент. – 2021

2. N.Komilov. Tasavvuf. –T.: Movarounnahr – O‘zbekiston, 2009.
3. Imomnazarov M. Haqiqat va majoz (2-3-maqolalar) // Sharq yulduzi. – T., 1989. — № 4; 1991. — № 4.
4. Navoiy Alisher. Lisonut tayr. Mukammal asarlar to‘plami. 20 jildlik. – T.: Fan, 1994. 12-jild.
5. Sharipov Sh. “Lisonut tayr” haqiqati. – T.: Ma’naviyat, 1998.
6. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.
7. Alisher Navoiy asarlari. Kutubxona: <https://forum.ziyouz.com>
8. Жфбборов .Н Маоний ахлининг сохибкирони . – T.: Adabiyot, 2021.
9. Шамсиев П. Жомий ва Навоий . T.: Fan, 1966